



**XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA VOHA ERKAKLARI
AN'ANAVIY LIBOSLARINING ETNOGRAFIK TAHLILI (BUXORO
VOHASI MISOLIDA)**

G'iyosova Zarina Yusuf qizi

Termiz Davlat Universiteti

Tayanch doktoranti

Annotatsiya

XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Respublikamizning o'ziga xos tarixiy-etnografik mintaqalaridan biri bo'lgan Buxoro vohasi o'zbeklarining an'anaviy kiyimlari ham o'ziga xos ko'rinishda shakllandi, kiyimlar majmuida turli etnik guruhlarga xos ko'rinishlar ham saqlangan bo'lib, bu mintaqadagi barcha etnik guruhlarning kiyinish madaniyatidagi farqli jihatlarni ko'rsatadi. Albatta, bunday ko'rinishlar bu davrdagi voha aholisining an'anaviy kiyimlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Ushbu maqolada Buxoro vohasi misolida erkaklarning an'anaviy liboslari qanday ko'rinishda bo'lgani, qanday matolardan, bezaklardan, ranglardan foydalanilgani, hamda bular qanday ramziy ma'nolarni ifoda etganligini o'rganishga ahamiyat qaratildi. Liboslar kishining jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatda tutgan o'rni, mavqei haqida ma'lumot berib turadi.

Kalit so'zlar: Chopon, do'ppi, mahsi, salla, belbog', ichki ko'ylak zardo'zi, bezak Kiyimlar haqida so'z yuritar ekanmiz avvalo, qanday matodan va ranglardan foydalanilganiga to'xtalib o'tish lozim. Buxoro vohasida liboslar ipak va yarim ipak matolaridan tikilgan: adras, olacha, beqasam, karbos, banoras, atlas, qalami, baxmal matolaridan foydalanishgan. Ushbu matolar hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida voha aholisining an'anaviy kiyimlari orasida "yelka yoqali"-kiftaki, o'yma yoqa kabi liboslar mavjud bo'lib, bichimi to'g'ri va keng bo'lgan bunday kiyimlarning yelkasiga chok qo'yilmagan¹.

¹ Davlatova S.Qashqadaryo milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik. -T.: "Yangi asr avlodi", 2006. -B.43.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd March, 2025

XIX asrning 20-30 -yillarigacha o'zbek erkaklarining ko'ylaklariga xos asosiy xususiyat ko'ylak yoqalarining gorizontol, ya'ni yarim doira yirmochi tarzida bo'lishi va oddiy jiyak yoki chiroz bilan bezatilishida ko'ringan. Ko'ylakning yenglari ham uzun bo'lib, qo'l panjalarigacha tushib turgan va yeng uchlari chiroyli jiyaklar bilan bezatilgan. 40- yillardan boshlab esa oq polotnodan tikilib yoqalari kashtalangan ukraincha ko'ylak rasm bo'lgan. Erkaklarning ichki ko'ylagi - kurta deb nomlangan. Ko'ylak bo'yin qismi yoshga qarab tikilgan. Asosan, bo'yin o'mizi vertikal yoki gorizontol ko'rinishda bo'lgan. Erkaklar ko'ylagi ikki tomonlama bichilar edi, shu sababli markaz bo'ylab bo'ylamasiga tikilgan va keng bo'lgan. Bunday ko'ylaklar tizzadan pastroqda tushib turgan, vaqt o'tib ko'ylakning uzunligi belgacha qisqartirilgan. Kundalikda kiyiladigan ko'ylaklar uchun xonaki ip gazlamadan, to'y marosimlar uchun esa shoyidan foydalanishgan.²

Erkaklar shimi (ezor) –o'rta qismi ikkita uchburchak shaklida tikilgan og'dan iborat bo'lib, unga to'piqqacha tushadigan keng pochalar ulangan. Shimning yuqori qismi qaytarilib tikilgan va bog'ich o'tkazilgan. Ezor, asosan, ip gazlamadan tikilgan. Aslzodalar kiyadigan ezor gulli, zarbof matolardan, hatto baxmaldan ham tikilgan. Shimning pastki qismiga zar yoki mo'yna bilan bezak berilgan. Pochalarning pastiga va yon tomonlariga jiyak tikilgan. Ma'lumki, jiyak nafaqat bezak sifatida foydalanilgan, balki u himoya vazifasini ham o'tagan. Erkaklar choponi – mavsumga qarab, uch turga bo'lingan : joma – astarti qavilgan kundalik chopon, Chakmon – jun matodan tikilgan qishlik chopon, yaktak – baxyasiz yozgi kiyim hisoblangan. Buxoro choponlari uzun, enli bo'lgan, sababi chopon tagidan bir necha kiyim kiyilgan. Uning yenglari bilakka borib toraygan. Bayramga mo'ljallangan choponlar uchun yorqin rangli, yirik gulli matolar tanlangan. Jumladan, shoyi, beqasaba nimshoyi, adras, zarbof matolar ishlatilgan. Bunday matolar mahalliy to'qimachilar tomonidan to'qilar yoki Xitoy va Rossiyadan keltiriladi edi. Buxoro choponlari erkaklarning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar bir xil bichimda tikilgan. Ular keng, enli, yoqa qismi kovaksimon shaklda bichilgan. Ularning qulfagi bo'lmagan. Choponning yoqa, etak, yeng qismlari hamda chetlariga ingichka jiyak tikib chiqilgan. Din peshvolari esa o'z kiyimlari bilan aholining boshqa vakillaridan

² Asomiddinova M.Kiyim-kechak nomlari. – T.: Fan,1981.



butunlay ajralib turgan. Din peshvolari, asosan oq dokadan tayyorlangan katta salla o‘ragan. Ustki kiyim sifatida esa oq-kumush rangli nimshoyidan tikilgan banoras chopon kiyishgan. Bunday choponni bugungi kunda Buxorodagi Sitorai Mohi Xossa majmuasida ko‘rish mumkin.

Erkaklar bosh kiyimi -mato va mo‘ynadan tayyorlangan turli shakldagi telpak, do‘ppi va salladan iborat edi. Matodan tayyorlangan bosh kiyimi uch turdan -qalpoq, araqchin va kulohdan iborat bo‘lgan. Qalpoq astari mustahkam, konussimon va qavilgan, keng gardishli bosh kiyim edi. Boshga yopishib turadigan araqchinning oq matodan astari va kashtalari bo‘lmagan. U asosan, qimmatbaho do‘ppi yoki mo‘ynali telpak ostidan kiyilgan. Kuloh to‘rtta uchburchakli segmentdan tashkil topib, gardishsiz edi. Buxoro amirligida bosh kiyimlar turfa xil edi. Kundalik hayotda rangli kichkina salla – futalardan foydalanilgan, faqatgina bayram tadbirlarida yoki marosimlarda oq salla o‘ralgan. XIX asrning ikkinchi yarmigacha salla asosiy bosh kiyimi hisoblangan. Keyinchalik salla faqat ko‘chaga chiqilganda kiyilgan. Bora -bora u kundalik bosh kiyimi emas, “Sallabandon” deb nomlanuvchi marosimda kiyiladigan bosh kiyimga aylandi. Kulohni esa alohida kiyish ham mumkin edi. U alohida gardishga ega bo‘lmagan. Kuloh to‘rtta uchburchakli segment (karj) dan tikilgan. Shakli va mutanosibligiga qarab, cho‘zilgan yoki aylana shaklda bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 Agzamova G.A. So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. – T.: O‘zbekiston, 2000. -B.17.
2. Almardonova B., Muhiddinov M. O‘zbekiston zargarlik san’ati// Moziydan sado. -2009. -№4. -B.46-48.
3. Almeeva D.E. Buxoro zargarlik san’ati // Buxoro madaniy me’rosi tarixidan. – Buxoro. -1995.-№ 3. -B.75-76.
4. Goncharova P.A. Buxoro zardo‘zlik san’ati. -T.: Toshkent, 1986.
5. Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an‘anaviylik va zamonaviylik. -T.: “Yangi asr avlodi” , 2006. -B.43.
6. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – T.: Fan, 1981.